Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 371.14
ORCID: 0009-0000-3129-762

AXBOROTLASHGAN TA'LIMDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mingyasharova Sevara Abdulla qizi
TerDMAU Matematika fani o'qituvchisi:
E-mail: sevara3433@gmail.com

Mamanov Jasur Hakim o'g'li
TerDPI Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'lim boshlig'i:
E-mail: ibrohimbek4486@gmail.com

Annotatsiya. Pedagog kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etishining asosiy tamoyillaridan biri o'ziga xos pedagogik mahoratga ega bo'lishidir. Pedagogik mahoratning shakllanishi va takomillashib borishi bevosita muntazam ravishda o'z ustida ko'proq ishlash, kasbiy kompetensiya hamda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirib borishni talab etadi. Buning uchun hozirgi kunda dolzarb masalaga aylangan axborotlashgan ta'lim muhitining o'rni katta ahamiyatga ega. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash, talabalarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishiga o'rgatish hamda ularda jahon miqyosida ta'lim jihatidan yetakchi o'rinda bo'lgan mamlakat o'quvchilari bilan bellasha oladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, pedagog o'qituvchilar zimmasida hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda axborotlashgan ta'lim muhitining o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Pedagog, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy faoliyat, kompyuter, zamonaviy texnologiya, axborotlashgan ta'lim.

РОЛЬ ИНФОРМИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Одним из основных принципов организации профессиональной деятельности учителя на высоком уровне является обладание уникальным педагогическим мастерством. Формирование и совершенствование педагогического мастерства напрямую требует регулярной работы над собой, развития профессиональной компетентности и педагогического мастерства. Для этого большое значение имеет роль информационной образовательной среды, которая сегодня стала актуальной. Воспитание всесторонне зрелой личности, обучение студентов применению своих знаний в повседневной жизни, формирование знаний, умений, умений и компетенций, способных конкурировать со студентами страны, занимающей лидирующие позиции по уровню образования в мире, безусловно, является обязанностью педагогов и преподавателей. Поэтому в данной статье говорится о роли информационной образовательной среды в развитии профессиональной компетентности студентов.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Ключевые слова. Педагог, компетентность, профессиональная компетентность, социальная активность, компьютер, современные технологии, информационное образование.

THE ROLE OF INFORMATION-BASED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Abstract. One of the main principles of organizing a teacher's professional activity at a high level is the possession of specific pedagogical skills. The formation and improvement of pedagogical skills directly requires regular self-improvement, the development of professional competence and pedagogical abilities. For this, the role of the informational educational environment, which has become an urgent issue today, is of great importance. It is the responsibility of teachers to educate a well-rounded individual, to teach students to apply their knowledge in everyday life, and to form in them the knowledge, skills, qualifications, and competencies that will enable them to compete with students from countries that are leaders in education worldwide. Therefore, this article discusses the role of an information-based learning environment in developing students' professional competencies.

Keywords: Teacher, competence, professional competence, social activity, computer, modern technology, information-based education.

KIRISH. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohasini axborotlashtirishga zamin yaratdi. Yurtimizning mehnat bozorida malakali kadrlarning yetishmayotganligi axborot texnologiya sohasidagi o‘quv dasturlari va metodlarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarining IT – sohasidagi kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Raqamlashtirishdan maqsad – muddaomiz nima o‘zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo‘yish, adolatni ta’minlash”, - deb ta’kidlagan [1; 24-b.].


Shunday ekan, axborotlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarning ilg‘or ijodiy shaxs, ichki dunyosi boy, keng qamrovli qiziqish, o‘z mutaxassisligiga oid yangilikka o‘ch bo‘lishi kerak. Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning innovatsion faoliyati motivatsion, texnologik va refleksiyali qismlardan iborat bo‘lib, faoliyatni tashkil etishda yoshlarning bilish faoliyati va uni boshqarish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi qanchalik keng doirada fikrlay olsa, ish faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olgan bo‘lsa, davr talabiga muvofiq tarzda mushohada yuritgan holda o‘zida ko‘pgina kasbiy qobiliyatlarni mujassam etgan bo‘lsa, bu nafaqat maktabning kelajagi balki jamiyatning, butun mamlakatning eng katta yutuqlaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada kompetensiya, kompetentlik va shu bilan birgalikda kasbiy kompetensiya atamalari yuzasidan izlanish olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilib, qarashlaridagi umumiylik hamda bir-biriga zid jihatlari tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga doir bir qancha masalalar nazariy jihatdan o‘z ifodasini topgan [2; 274-b.].

Axborotlashgan ta’lim muhiti asosida talabalarning yangiliklarni o‘z sohasiga kiritish bo‘yicha ijodiy faoliyatini jalb etishga tayyorgarligi, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha innovatsiyalar kiritishga qaratilgan harakatlar natija berishiga ishonchi, shaxsiy maqsadlarining axborotlashgan ta’lim muhiti bilan mosligi va muvofiqligi, hamda mutaxassis o‘zini innovatsion faoliyatiga yo‘naltirishi uchun yangiliklarni anglashga tayyorlash va yangicha harakat qilish ko‘nikmasini shakllantira olishi lozim.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz



Ta'limni axborotlashtirish faqatgina ma'lumotlar va ko'nikmalar yig'indisini egallashdan iborat bo'lgan ta'lim natijalarigina emas, balki insonning kasbiy faoliyatiga, har xil muammoni mustaqil ravishda hal qila olishga qodirligi va tayyorligiga yo'naltirilgan ta'lim natijalarining yangi turlarini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Axborotlashgan ta'lim muhitidan foydalanib ta'limni tashkil etishda ko'plab metodlar va yondashuvlar mavjud. Shulardan quyidagi adabiyotlarni ko'rib chiqamiz. F. I. Ma'murovaning ilmiy tadqiqot ishida "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetentlik" tushunchalariga ta'rif va tasniflar berilgan. Axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan va shu asosida elektron o'quv qo'llanma yaratilgan.

S.J.Yaxyayevning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak muhandis pedagoglarning raqamli kompetensiyasining elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilgan va ilg'or zamonaviy texnologiyalar asosida pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilgan. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ullardan o'quv kurslari mazmunini, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni, elektron ta'lim resurslarini yaratishda raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlarida samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

M.S. Divanovaning ilmiy tadqiqot ishida texnika oliy ta'lim muassasalarida oliy matematika ta'limi jarayonini axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriluvchi algoritmik uslub yordamida tashkil etish tizimi yaratilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy sohadagi ta'lim mazmunining o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi bilan bog'liq takroriy, yangilanuvchi o'quv faoliyatiga yo'nalganlikdir. Ya'ni shaxs o'zi egallagan kasb asosida qaytadan malakalarini shakllantirish, oshirish, o'zgartirish va rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi. Axborotlashgan ta'lim muhiti talabalarda maxsus qobiliyatlarni shakllantirishga pedagogning faol sub'ektiv pozitsiyasini ilgari suruvchi aniq maqsadga yo'nalgan ish tizimini tashkil etish orqali erishiladi. Talabaning kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflashni talab qiladi. Shularni e'tiborga olgan holda, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda va ularning malakasini oshirishda axborotlashgan ta'lim muhitida o'qitishning maqsadi – tinglovchilarning kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish, shuningdek, ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va

dizayn fikrlash texnologiyasi yordamida takomillashtirishdir [3; 170-b.].

Talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda, pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatni tashkil qilishga imkon beruvchi shart-sharoitlarning to‘plami sifatida qayd etiladi. Pedagogik sharoitlar mazkur jarayonni keltirib chiqaribgina qolmay, balki uning mavjud holatini ham belgilaydi.

Talabalarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bosqichma-bosqich, mutaxassislik fanlarining integratsiyasi, fanlararo aloqadorlik darajasida innovatsion yondashuv asosida muhandislik faoliyatida hamda muammoli vaziyatli topshiriqlarni yechish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogikada “kompetensiya” – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularning innovatsion yondashuv asosida mutaxassislik faoliyatida qo‘llay olishi bilan ifodalanadi [4; 245-b.].

O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga tayyorlashda ularning axborotlashgan ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, kasbiy-muhandislik jihatidan tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash masalasi bevosita jarayonning mazmuni bilan bog‘liq.

Talabalarning ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- darsda o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fanni chuqur o‘zlashtirilishiga ;
- talabalarning kasbiy bilimlarini egallashiga ;
- interaktiv muloqot jarayoni paydo bo‘lishi hisobiga talabalarda o‘qitishni individuallashtirish va differensiallashtirishga.
- o‘quv jarayonini turlicha tashkil etilishiga sababli talabaning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlanishiga;

Talabalarning axborotlashgan ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish barcha gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-lmiy va matematik bilimlar, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlik fanlari mazmunini ishlab chiqish, talabalarning mutaxassislik faoliyati haqida, uning vazifalari va hal etadigan muhandislik masalalari, munosabatlari, usullari borasida to‘la tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. O‘rganilayotgan hodisaning har tomonlama nazariy-metodik va tajriba-amaliy jihatdan o‘rganilishi talabalarning axborotlashgan ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini tizimli aniqlashda yuzaga kelgan yondashuvni tasavvur etishga imkon beradi. Harakat tartibi va ularning tarkibi talabalarning aqliy va amaliy imkoniyatlarini hisobga olib, yetarli darajada ishlab chiqilishi zarur. Har qanday ta’lim texnologiyasi ba’zi bir metodologik talablarga yoki texnologik mezonlarga javob bera olishi kerak [5; 48-b.].

Oxirga paytlarda respublikamizdagi pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilayotgan o‘quv rejalarda “ko‘p fanlilik” (fanlar sonini ko‘payib ketganligi) kabi muammolarga ro‘para kelishayotgani, bunda talabalar bir vaqtning o‘zida ko‘pincha bir-biri bilan yaxshi bog‘lanmagan, fanlarning o‘qitilishi ba’zan uzviylik va uzluksizlik tamoyillarining ishlamasligi, bir-ikkinchisini takrorlovchi o‘n ikkitagacha mustaqil o‘quv fanlarini o‘rganishiga to‘g‘ri keladi.

Ko‘p fanlilik bilan bir qatorda o‘qituvchi tayyorlashning “elementlar bo‘yicha” tendensiyasi rivojlanib, u alohida elementlar, qismlardan tarkib topib, ularning har biri tegishli fanga oid nazariy ma’lumotlar hamda u belgilab beruvchi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalardan vujudga keladi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uni ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirish va talabalarga turli noan’anaviy metodlar asosida darsni tashkil etish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ham ma’nan, ham jismonan

rivojlanishiga muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy

axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi o'qituvchilarga ta'lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o'zgartirish imkonini beradi. Ta'limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida talabalarning intellektual imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, individuallashtirish, intensivlashtirish va ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni – 24 b. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" - p. 24.)

2. G'ulomov S.S. Ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yo'nalishlari – T.: Sharq, 2020y. -145-173b. (Gulyamov S.S. Strategic and priority areas for the widespread introduction of information and communication technologies into the education system - T.: Sharq, 2020. -145-173p.)

3. Azizxo'jayeva N.N. // Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Sharq 2023y.– 174 b.(Azizkhojyeva N.N. // Pedagogical technology and pedagogical skills. – T.: Sharq 2023– 174 p.)

4. Mingyasharova S.A. "Bo'lajak muhandislar uchun o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning o'rni va ahamiyati" ,Ta'lim, fan va innovatsiya jurnal 1-son, 2024-y.- 245 b. (Mingyasharova S.A. "The role and importance of using pedagogical technologies in the educational process for future engineers", Journal of Education, Science and Innovation, issue 1, 2024-245p.)

5. Mingyasharova S.A. Mamanov J.H. "Oliy ta'lim jarayonida informatika va axborot texnolgiyalari talabalarining mutaxassislik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari" Termiz konf. 2023-y. 48 b.(Mingyasharova S.A. Mamanov J.H. "Methods for developing professional knowledge and skills of students of informatics and information technologies in the process of higher education" Termez conf. 2023y.- 48p.)

6. Mingyasharova S.A. System of development of professional competences of future engineers in an informed educational environment// Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. –2023-y.- 143 b.

7. S.A.Mingyasharova "Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodlari" TIQXMMI milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida "Fan, innovatsion texnika va texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi – 2023-yil, 27-28-oktabr. 524-529 b. (S.A. Mingyasharova "Methods of developing professional competencies of future engineers in the process of higher education" Republican scientific and practical conference on the topic "Prospects for the development of science, innovative techniques and technologies" at the Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnologies of the National Research University of the Republic of Uzbekistan. Karshi - October 27-28, 2023. pp. 524-529.)

8. Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi sayti - www.giu.uz